



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
texnologiya fani o'qituvchisi
_____ning

20__-20__-o'quv yili uchun
“SEXRLI QO‘LLAR” NOMLI

**TO‘GARAK
HUJJATLARI**

To'g'arak a'zolari haqida ma'lumot

<i>No</i>	Familiya ismi va sharifi	Tug'ilgan sanasi	Sinfi	Manzili (to'liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
<i>1.</i>							
<i>2.</i>							
<i>3.</i>							
<i>4.</i>							
<i>5.</i>							
<i>6.</i>							
<i>7.</i>							
<i>8.</i>							
<i>9.</i>							
<i>10.</i>							
<i>11.</i>							
<i>12.</i>							
<i>13.</i>							
<i>14.</i>							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona _____

MMIBDO‘ _____
20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan “Sexrli qo‘llar” to‘garagining
ISH REJASI

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	O‘zbek xalq hunarmandchiligining tarixi, rivojlanishi va istiqbollari			
2.	Xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ko‘rgazma va tanlovlarni tashkil qilish, ishtirokchilarni tanlash qoidalari			
3.	Milliy liboslarda ko‘ylak va uning turlari haqida ma‘lumot. Gavdadan o‘lchov olish va yozish. Hisoblash formulasi			
4.	Ko‘ylak asos chizmasini chizish. Hisoblash formulasi			
5.	Ko‘ylakni va bo‘yin o‘mizini modellashtirish hamda andoza tayyorlash			
6.	Andozani gazlamaga joylashtirish va bichish			
7.	Bichiq bo‘laklariga ishlov berish. Birinchi kiydirib ko‘rish			
8.	Bo‘yin o‘miziga ishlov berish			
9.	Sun‘iy gullardan guldasta yasash			
10.	Izonit va uning turlari			
11.	Izonoit usulida pano (guldasta) tikish			
12.	Bluzka bichish va tikish texnologiyasi			
13.	To‘qish san‘ati			
14.	Bolalar ponchosini to‘qish texnologiyasi			
15.	O‘zbekistonda ishlab chiqarish turlari			
16.	Texnologik jarayon haqida tushuncha			
17.	To‘yimli salatlar tayyorlash texnologiyasi. “Vitaminli” salatini tayyorlash			
18.	Baqlajon, funchoza va mol go‘shidan salat tayyorlash			
19.	Takrorlash			
20.	Lag‘mon cho‘zish texnologiyasi			
21.	Konservalash va mavsumiy tuzlamalar			
22.	Kiyimlarni dazmollash			
23.	Maishiy kimyoviy vositalaridan foydalanish usullari			
24.	Issiqlik, elektr, suv ta‘minoti va oqova suv quvurlari			
25.	Elektronikaning iqtisodiyot tarmoqlaridagi o‘rni			
26.	Tungi yoritgich yasash			
27.	Ijodiy loyiha. Ijodiy loyiha bilan tanishish. Ijodiy loyihani tayyorlash bosqichlari			
28.	Bilaguzuk yasash texnologiasini loyihalash			
29.	Inson hayotida kasbning o‘rni			
30.	Kasblar tasnifini, kasblarda mehnat turlarining ta‘rifi			
31.	Kasbni to‘g‘ri tanlashning mohiyat i va istiqboli			
32.	Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik			
33.	Kasbga yaroqlilikni belgilash va moyillikni tarbiyalash usullari			
34.	Kasbiy o‘z-o‘zini anglash va kasbiy qiziqishni aniqlash usullari			

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinflar: _____.To‘garak rahbari: _____

Mavzu: O‘zbek xalq hunarmandchiligining tarixi, rivojlanishi va istiqbollari.

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta‘limiy maqsad: O‘quvchilarga O‘zbek xalq hunarmandchiligining tarixi, rivojlanishi va istiqbollari. O‘zbek xalq hunarmandchiligiga asos solgan hunarmand ustalar, xalq hunarmandchiligining turlari, ish usullari, “Hunarmand” uyushmasi va uning istiqbollari, hunarmandlar tayyorlagan buyumlar, xalq hunarmandchiligi bo‘yicha turli ko‘rgazma va tanlovlarni tashkil etish hamda o‘tkazish shartlari bo‘yicha to‘liq ma‘lumotlar berish.

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarni tozalikka, mehnatsevarlikka o‘rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Texnika xavfsizligi qoidalari, ish o‘rnini tashkil qilish qonun qoidalarini tushuntirish, sanitariya gigiyena talablariga to‘liq rioya etishni o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘zbek xalq hunarmandchiligining tarixi, rivojlanishi va istiqbollari. O‘zbek xalq hunarmandchiligiga asos solgan hunarmand ustalar, xalq hunarmandchiligining turlari, ish usullari, “Hunarmand” uyushmasi va uning istiqbollari, hunarmandlar tayyorlagan buyumlar, xalq hunarmandchiligi haqida tasavvurlarini shakllantirish.

Mashg‘ulot turi: Yangi bilim beruvchi. Bilimlarni mustahkamlovchi. Kompetentlikni shakllantiruvchi

Mashg‘ulot uslubi: Tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “Kim epchil-u, kim chaqqon”, “Ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “Muammo va yechim”, “Krossvord”, “Labirint”, “Tushunchalar tahlili” “Kubik” “Charxpalak”, “T-jadval”, “BLITS savol” va shu kabi metodlar (belgilangan metodlardan Mashg‘ulotda qo‘llanilishi lozim bo‘lganining tagiga chizing).

Mashg‘ulotda jihozi: texnologiya fani o‘quv xonasi, rasm va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar, test materiallari, shablonlar, mehnat qurollari.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism:

a)Salomlashish b)Davomatni aniqlash c) Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish

II. Uyga vazifani so‘rash:

a)Savol – javob o‘tkazish b)Topshiriqlarni tekshirish c) o‘quvchilarni baholash

III. Yangi mavzu bayoni:

Yurtimizda xalq JIIIllarmandchiligini qadimdan keng rivoj topgan bo‘lib, uning tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Yozma manbalar, arxeologiya materiallari, XIV—XV asrlarga mansub kitoblardagi miniaturalar gazlamaga ishlov berish bo‘yicha xalq hunarmandchiligining rivojlanishini ko‘rsatadi.

O‘rta Osiyoda, ayniqsa, o‘zbek, turkman, tojik ayollari o‘rtasida gazlamaga ishlov berish bo‘yicha xalq hunarmandchiligi keng tarqalgan bo‘lib, uning zardo‘zlik (ilmado‘zlik, yo‘rmado‘zlik, zamindo‘zlik), kashtachilik, gulko‘rpa va so‘zanacliilik, gilamchilik va boshqa sohalarida rivojlangan.

Oilada har bir ayol, bar bir qiz kashta tikishni bilishi lozim bo‘lgan. Kashta tikuvchi hunarmand kahtado‘z yoki kashtachi deb atalgan. Bu davrda kiyimlar, so‘zana, kirpech, dorpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta va boshqalar har bir xonadonda tikilgan. Onalar tug‘ilgan qizlari uchun ularning chaqaloqligidanoq bisot tayyorlay boshlaganlar.

Respublikamizning turli joylarida dekorativ kashtalarda turli choklardan foydalanilgan. Masalan, Nurota, Buxoro, Samarqandda gazlamaga ishlov berish bo‘yicha xalq hunarmandchilik mahsulotlari ko‘proq yo‘rma chok bilan, Shahrisabzda yo‘rma kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko‘proq bosma chok bilan tikilgan.

O‘zbek kashtado‘zlarining dekorativ kashtalari naqshida o‘simliksimon tasvirlar, shox, gulband, guldastalar ko‘p uchraydi. XX asrning o‘rtalaridan boshlab kashtalarda buyuk kishnarning siymolari ham aks ettiriladi bosiladi. O‘zbekiston Davlat san‘at muzeyi va O‘zbek amaliy san‘at muzeylarida saqlanayotgan portretli va sujtli kashta pannolari o‘zbek kashtachiligi mahoratidan dalolat beradi.

O‘zbek kashtachiligida do‘ppi alohida o‘rin egallaydi. Shahrisabzning gilam do‘ppisi, B uxor oiling zar do‘ppisi, Namanganning chust, iroqi, duxoba va boshqa do‘ppilari O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan

«Hunarmand» uyushmasi va uning faoliyati

Milliy hunarmandchilik va amaliy san‘atni yanada rivojlantirish, xalq ustalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning mehnatlarini munosib rag‘batlantirish maqsadida “Hunarmand” uyushmasi tashkil qilingan bolib, ushbu uyushma faoyiliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda PQ-3393-sonli «Hunarmandchilikni rivojlantirish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Qarori qabul qilindi.

Qarorda hunarmandchilik sohasida avlodlar vorisligini ta'minlash, «Usta-shogird» maktablari faoliyatini takomillashtirish va faoliyat samaradorligini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Bugungi kunda xalq hunarmandchiligi bo'yicha «Usta-shogird» maktablari faoliyati kengaytirilib, ko'plab yoshlar xalq hunarmandchiligi sirlarini o'rganmoqdalar. Bundan tashqari, yosh hunarmandlar uchun «Yosb ijodkorlar», «Mustaqillik nafasida kamol topgan hunarmandlar», «Yosb kulollarning respublika ko'rgazmasi», «Mustaqil yurt hunarmandlari», «Vatanim taraqqiyotiga mening hissam» kabi ko'rik-tanlovlar tashkil etib kelinmoqda



Quyida hunarmandlar tomonidan tayyorlangan buyumlardan namunalar keltirilgan (33-rasm).

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Xalq hunarmandchiligi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. O'rta Osiyoda xalq hunarmandchiligining qaysi sohalari rivojlangan?
3. Kashtachilik va zardo'zlik qo'llanib tikilgan qanday buyumlarni bilasiz?
4. Xalq hunarmandchiligi bo'yicha ko'rik-tanlovlar qanday maqsadda tashkil qilinadi?

V. Mashg'ulotni yakunlash:

Mashg'ulotda faol qatnashgan o'quvchilarni baholash, o'quvchilarda shakllanishi mumkin bo'lgan kompetensiyalarni tushuntirish, o'quvchilarda shakllangan kompetentlikni to'g'ri yo'naltirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Yangi mavzuni to'liq takrorlash. Yangi mavzu yuzasidan savollar tayyorlash.

Maktab MMIBDO' _____ sana _____ 20__yil

Sana: “_” _____ 20__-yil. Sinflar: _____.To‘garak rahbari:_____

Mavzu: Xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ko‘rgazma va tanlovlarni tashkil qilish, ishtirokchilarni tanlash qoidalari.

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga Xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ko‘rgazma va tanlovlarni tashkil qilish, ishtirokchilarni tanlash qoidalari haqidama’lumotlar berish.

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarni tozalikka, mehnatsevarlikka o‘rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Texnika xavfsizligi qoidalari, ish o‘rnini tashkil qilish qonun qoidalarini tushuntirish, sanitariya gigiyena talablariga to‘liq rioya etishni o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Mahsulot

ishlab chiqarishda texnologik jarayonlar. Jarayonda ishlatiladigan xom-ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash, tayyorlash, ularning holatini, xossalari va shaklini o‘zgartirish usullari mehnat predmetiga mexanik ta’sir etish: materiallarni kesish, qirqish, biriktirish, payvandlash orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar haqida tasavvurlarini shakllantirish.

Mashg‘ulot turi: Yangi bilim beruvchi. Bilimlarni mustahkamlovchi. Kompetentlikni shakllantiruvchi

Mashg‘ulot uslubi: Tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “Kim epchil-u, kim chaqqon”, “Ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “Muammo va yechim”, “Krossvord”, “Labirint”, “Tushunchalar tahlili” “Kubik” “Charxpalak”, “T-jadval”, “BLITS savol” va shu kabi metodlar (belgilangan metodlardan Mashg‘ulotda qo‘llanilishi lozim bo‘lganining tagiga chizing).

Mashg‘ulotda jihozi: texnologiya fani o‘quv xonasi, rasm va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar, test materiallari, shablonlar, mehnat qurollari.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism:

a)Salomlashish b)Davomatni aniqlash c) Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish

II. Uyga vazifani so‘rash:

a)Savol – javob o‘tkazish b)Topshiriqlarni tekshirish c) o‘quvchilarni baholash

III. Yangi mavzu bayoni:

Mamlakatimizda xalq hunarmandchiligini yanada rivojlantirishga, amaliy san’atning an’anaviy turlarini saqlash va qayta tiklashga, hunarmandchilik mahsulotlarining raqobatbardosligini va sifatini oshirish hamda himam and chili κ sohasidagi tasblarni yoshlarga o‘rgatishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada turh xil ko‘rgazma va tanlovlarni tashkil etilmoqda.

Xalq hunarmandchiligi yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan ko‘rgazma va ko‘rik-tanlovlarning ilk bosqichi bo‘lgan gazlamalarga ishlov berish, kashtashilik, zardoizlik, bosh kiyimlar, milliy liboslar tayyorlash kabi yo‘nalishlarga qaratilgan tanlovlarni maktab miqyosida yoki bir necha maktabkar ishtirokida o‘tkazish mumkin.

Mustaqillik yillari respublikamizning deyarli barcha amaliy san`at markazlari, yangidan tashkil etilgan firma hamda qo‘shma korxonalarining ijodkor kosib va hunarmand ustalari tomonidan xalq san`atning kashtado‘zlik, gilamchilik, ganch o‘ymakorligi, zagarlik kabi o‘nlab turlari rivojlanib kelmoqda.



Hunarmand” uyushmasi ustalarining buyumlarini namoyish etish va sotish uchun qandaydir ko‘rgazma zallari, do‘kon, ko‘rgazma-savdo maydonlari kerak bo‘ladi. Bu ustalar ishlarini keng ommaga targ‘ib qilish, milliy hunarmandchilik mahsulotlarining zamonaviy ko‘rinishlarini yaratish, yoshlarni ish bilan ta‘minlashga katta yordam beradi. Ayni paytda “Hunarmand” uyushmasi tasarrufida ko‘rgazma zallari va do‘konlar mavjud emas. Biroq har yili uyushma tomonidan hunarmandlar o‘z mahsulotini namoyish etadigan va sotadigan turli xil ko‘rgazma-savdolar tashkil etiladi. Samarqand, Marg‘ilon, Andijon va Toshkent shaharlarida “Hunarmandlar markazlari” qurilgan bo‘lib, u joyda uyushma a‘zolari o‘zlari tayyorlagan buyumlarni sotish imkoniyatiga ega

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Barkamol shaxs tarbiyasida mehnat ta‘limining qanday o‘rni bor?
2. O‘zbek xalq hunarmandchiligining qanday turlarini bilasiz?

V. Mashg‘ulotni yakunlash:

Mashg‘ulotda faol qatnashgan o‘quvchilarni baholash, o‘quvchilarda shakllanishi mumkin bo‘lgan kompetensiyalarni tushuntirish, o‘quvchilarda shakllangan kompetentlikni to‘g‘ri yo‘naltirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: Yangi mavzuni to‘liq takrorlash. Yangi mavzu yuzasidan savollar tayyorlash.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__yil

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinflar: _____. To‘g‘arak rahbari: _____

Mavzu: Milliy liboslarda ko‘ylak va uning turlari haqida ma’lumot.

Gavdadan o‘lchov olish va yozish. Hisoblash formulasi.

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga milliy liboslarda ko‘ylak va uning turlari haqida ma’lumot. Gavdadan o‘lchov olish va yozish. Hisoblash formulasi haqida ma’lumotlar berish.

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarni tozalikka, mehnatsevarlikka o‘rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Texnika xavfsizligi qoidalari, ish o‘rnini tashkil qilish qonun qoidalarini tushuntirish, sanitariya gigiyena talablariga to‘liq rioya etishni o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilar tasavvurida milliy liboslarda ko‘ylak va uning turlari haqida ma’lumot. Gavdadan o‘lchov olish va yozish. Hisoblash formulasi haqida bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish.

Mashg‘ulot turi: Bilimlarni mustahkamlovchi. Yangi bilim beruvchi.

Mashg‘ulot uslubi: Tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “Aqliy hujum”, “Kim epchil-u, kim chaqqon”, “Klaster”, “B/B/B” metodlaridan foydalaniladi.

Mashg‘ulotda jihozi: pazandachilik o‘quv xonasi, tikuvchilik ish qurollari va jixozlari, rasm va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar, test materiallari.

I. Yangi mavzu bayoni:

O‘zbekcha milliy ko‘ylaklar o‘zining sipoligi, ko‘rkamligi qulayligi va hammabopligi bilan ajralib turadi. Milliy ko‘ylaklar zamonaviy modaga muvofiq tarzda rivojlanib boradi. Etagi yaxlit, yuqori qismi koketkali ko‘ylak milliylik ramzi bo‘lgani uchungina emas, balki, asosan iqlim xususiyatlariga, tevarakatrofdagi tabiatga va turmush tarziga to‘g‘ri keladigan ratsional shakllar, bichimlar bir necha asrlardan beri saralanib kelgani uchun saqlanib qoldi. Ayollar ko‘ylagidagi yorqin ranglar mutanosibli o‘lkamiz tabiatiga monand tushgan bo‘lib, shaklining erkinligi va bimalol tushib turishi jazirama quruq iqlim sharoitiga mos keladi, chunki bunda kiyim tagi qatlamida havoning tabiiy ventilyatsiyasi mavjud bo‘ladi. Shu bilan birga o‘zbekcha milliy ko‘ylaklarning badanga bevosita tegib turadigan qismi – koketkaning astari (toqisi) odatda ip gazlamalardan tikiladi, bu esa ko‘ylakni sun‘iy gazlamalardan ham tikish imkoniyatini beradi. Koketkalarining uzunligi va shakli (oval, to‘g‘ri to‘rtburchak, burchakli, murakkab), ko‘ylak uzunligi va shakli (to‘g‘ri to‘rtburchak va trapetsiyasimon), va shakl hosil qilish usullari (burmalar, taxlamalar, plisse, gofre, qiya bichiq, klyosh, qiyiq bo‘laklar), eng uzunligi, shakli va bichimi (o‘tqazma, reglan, yaxlit bichilgan) o‘zgarib bormoqda. Yoqa turlari (inglizcha klassik, sholsimon, tik, qaytarma, yaxlit bichilgan va hokazo) va yoqa o‘mizining shakllari nihoyatda ko‘p xilma-xil. Ko‘ylakning bo‘yi, ya’ni koketkadan pastki qismi to‘g‘ri enlardan tikilishi sababli gazlamaning gullari ko‘ylakda butunligicha saqlanadi va ko‘ylak chiroyli chiqadi. Ko‘krak burmali to‘g‘ri ko‘ylak to‘la xotin-qizlarga ham, ozg‘in va nozik gavdali xotin-qizlarga ham yarashadi. Milliy ko‘ylaklarda kashta, qo‘yma burma, kant, mag‘iz, biser va boshqa ko‘pgina bezak turlaridan foydalaniladi. Ishlatiladigan materiallari turi, naqshlar echimi moda yo‘nalishiga bog‘liq bo‘ladi, lekin an’anaviy xonatlas har doim bir xilda keng ishlatiladi. Xonatlas ko‘ylaklarni bichishda uning rasmi to‘g‘ri tushishiga e’tibor berilishi kerak. Hozirgi paytda ayollarning milliy o‘zbekcha ko‘ylagida ma’lum o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Ko‘ylak gavda qismining silueti, hajmi va uzunligi qisqarmoqda. Koketka, yoqa, yenglarning katta-kichikligi va shakliga ko‘pgina omillar, shu jumladan moda ta’sir etmoqda. Hozirgi o‘zbekcha ko‘ylakda turli bezaklar, qo‘yma burmalar, aylana burmalar, plisse va h.k. ishlatiladi.

Gavdadan o‘lchov olish va yozish:

Kiyimni to‘g‘ri tikish uchun o‘lchovlar gavdadan to‘g‘ri olinishi kerak. O‘lchovi olinayotgan kishi o‘zini erkin tutib tik turishi lozim. O‘lchov olishda xato qilinsa, andozaning chizmasi to‘g‘ri chiqmaydi, gazlama noto‘g‘ri bichilib, kiyim xunuk bo‘lib qoladi. O‘lchovi olinayotgan kishining gavda tuzilishiga ahamiyat berish zarur. Chunki hammaning bo‘y-basti baravar emas. O‘lchov olish uchun santimetrli lenta, qalam va qog‘oz kerak. Uzunlikni, ya’ni bo‘yni ko‘rsatuvchi o‘lchovlarning hammasi to‘la yoziladi. Aylanalarni ko‘rsatuvchi o‘lchovlar va kenglik o‘lchovlarining yarmi yoziladi.

O‘lchovlar quyidagicha olinadi:

1. Bo‘yin aylanasi BA. Santimetrni bo‘yinning yettinchi umurtqa pog‘ona nuqtasi. Gavdadan o‘lchov olish orqali bo‘yin asosidan o‘rab olib o‘lchanadi.

2. Ko'krak aylanasi - KA. Bu kiyimning razmerini belgilaydigan asosiy o'lchovdir. Santimetr lentasi orqada kurakning turtib chiqib turgan joyidan o'tib, ikkala qo'ltiq tagidan o'tkazilib va ko'krak ustidan gorizontal ravishda aylantirib o'lchanadi.
3. Bel aylanasi - BA. Belning eng xipcha joyidan aylantirib o'lchanadi.
4. Bo'ksa aylanasi - BA. Ikkala sonning eng ko'p chiqib turgan joyi - beldan 18-20 sm pastdan gorizontal ravishda aylantirib o'lchanadi.
5. Orqa kurak kengligi - OK. Uni o'ng qo'lni tana bilan birikkan joyidan chap qo'lning gavdaga birikkan joyini topib santimetr lentani kurak ustidan o'tkazib o'lchanadi. Bu o'lchov kenglik bo'lgani uchun yarmi yoziladi.
6. Old kenglik – OK. Santimetr lentasi ko'kraklar usti bilan qo'lgacha bo'lgan oraliqdan gorizontal ravishda o'tadi.
7. Yelka kengligi – YeK. Uni elka uzunligi desa ham bo'ladi, chunki elka kengligi to'liq yoziladi.
8. Ko'krak oralig'i - KO. Ikki ko'krak orasi o'lchanib, yarmisi yoziladi va KO deb belgilanadi.
9. Orqa bo'lak belgacha uzunligi - OBU. Ettinchi umurtqa pog'onasidan belgacha vertikal ravishda o'lchanadi.
10. Kiyimning uzunligi – KU. Ettinchi umurtqa pog'onasidan zarur uzunlikkacha o'lchanadi.
11. Ko'krak balandligi – KB. Bo'yinning elka bilan birikkan joyidan ko'krakkacha o'lchanadi.
12. Engning uznligi – EU. Santimetr lenta yordamida elka bo'g'imidan sal bukilgan tirsak orqali qo'l panjasigacha o'lchanadi.
13. Yelka qiyaligi uzunligi – EQ. Belning umurtqa pog'onasi nuqtasi holatidan yelka bo'g'imigacha qiya o'lchanadi.
14. Yelka aylanasi – EA. Qo'lning eng yo'g'on joyidan aylantirib o'lchanadi.

O'lchovlarni gavdaga mos qilib olish kerak. Kiyimning to'kisligi uchun qo'shiladigan haq kiyimning fasoniga bog'liq bo'lib u qo'shimcha deyiladi va "Q" bilan belgilanadi. Qo'shimcha haqni 2 sm dan 6 sm gacha olish mumkin, u hisoblash jadvalini to'ldirishda qo'shiladi (4-jadval). Bichish vaqtida andozaning chetidan chok haqi qoldiriladi.

Amaliy mashg'ulot:

Kerakli asbob va moslamalar: Ish qutichasi, santimetr lentasi, 70-90 sm uzunlikdagi rezinka belbog', qalam, daftar. Har bir o'quvchi o'z o'lchovini aniqlaydi. Bu ishni bajarayotganda o'quvchi tovonlarini juftlab? ikkala oyog'ida, gavdani tabiiy holatda bo'sh qo'yib, qo'llarini tushirib tinch turishi kerak. O'lchayotganda tor futbolka ustidan emas, balki gavdaga yopishib turmaydigan ich kiyim, masalan mayka ustidan o'lchanadi. O'lchashni boshlashdan oldin gavdaning asosiy nuqtalari – bel chizig'i va boshqalar belgilab olinadi. Buning uchun belga 70-90 sm uzunlikdagi rezinka belga gorizontal qilib ilgak yordamida birlashtiriladi. O'lchayotganda santimetrli lentani tortmay va bushashtirmay, old tomondan tutashtiriladi. Yelka, qo'l uzunligi va o'lchamlarni gavdaning o'ng tomonidan olish kerak va asosiy o'lchovlar jadvalidagi "Mening o'lchovim" bo'limiga har bir o'quvchi yozib chiqadi. Keyin o'qituvchiga tekshirtiradi. Tikiladigan buyumlarga qo'yiladigan asosiy talablar: Tikilgan buyum qulay, kishining nafas olishiga, organizmida qon aylanishiga va gavdaning harakatiga halal bermaydigan, shaklini yaxshi saqlaydigan, muayyan darajada havo o'tkazuvchi, hushbichim, chiroyli va yaxshi bezatilgan bo'lishi kerak. Qishki kiyimlar kishining tanasini sovuqdan saqlashi, yozgi kiyimlar havoni yaxshi o'tkazishi, ichki kiyimlar terni yaxshi shimib oladigan va oson yuviladigan bo'lishi lozim. Tikilgan kiyimlarning talablariga mosligi bir necha amallarga, chunoncha: materialni to'g'ri tanlanishiga, sifatiga va kiyim modelining maqsadga muvofiqligiga, kiyimlarning tikilishi va bezatilishiga bog'liqdir.

II. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Asosiy o'lchovlarning nomlarini ayting.
2. Qo'shimcha deb nimaga aytiladi?
3. O'lchovlarning nomini yozib bering.
4. Kiyimning uzunligi qanday o'lchab olinadi?
5. Nima uchun aylana va kenglik o'lchovlarining yarmi yoziladi?

V. Mashg'ulotni yakunlash va o'quvchilarni baholash. Tikuvchilik o'quv xonasini tartibga keltirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: mavzu bo'yicha berilgan barcha ma'lumotlarni o'qib-o'rganib kelish.

*v**eb**-saytimiz: **Zokirjon.com**
Hujjat Word variantda beriladi.*

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi. Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

Texnologiya fanidan 34 soatli “Sexrli qo‘llar” to‘garakni to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 20 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev** Zokirjon**



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.